

HOZIRGI GLOBALLASHUV JARAYONIDA MAMLAKATIMIZDA TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.

Allanov Shuxrat Qilichovich

Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti

Texnologiya va Geografiya kafedrasи o'qituvchisi

Tursunova To'lg'onoy Saidnazarovna

Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti

Geografiya ta'lif yo'naliشining 2 kurs talabasi

Allanov Shukhrat

Termez State Pedagogical Institute Faculty of natural and Exact Sciences Teacher
of the Department of technology and geography

Tursunova Thulganoy

Termez State Pedagogical Institute Faculty of natural and Exact Sciences 2-year
student of the geography education direction

Annotatsiya. Ushbu ishda hozirgi globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasida turizm industriyasini rivojlantirishning imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilingan. Globallashuv jarayoni mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va axborot aloqalarini kuchaytirib, turizm sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan tarixiy-madaniy meros, tabiiy boyliklar hamda zamonaviy infratuzilmaning rivojlanishi orqali turizm salohiyatini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va marketing strategiyalarini takomillashtirish kabi takliflar bildirilgan. Mazkur ish turizm industriyasini yanada rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, sohaga oid strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Turizm xizmatlari eksporti, "Umra plyus" turpaket, jahon turizmi, "Tabarruk ziyyarat" kontsepsiysi.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ИНДУСТРИИ ТУРИЗМА В НАШЕЙ СТРАНЕ В ХОДЕ НЫНЕШНЕЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Аннотация. В данной работе проанализированы возможности и перспективы развития индустрии туризма в Республике Узбекистан в современных условиях глобализации. Процесс глобализации укрепляет экономические, культурные и информационные связи между странами, создавая новые возможности в сфере туризма. В работе рассмотрены пути наращивания туристического потенциала Узбекистана за счет имеющегося историко-культурного наследия, природных ресурсов и развития современной инфраструктуры. Также были высказаны предложения по привлечению инвестиций в сферу туризма на основе зарубежного опыта, внедрению цифровых технологий, совершенствованию маркетинговых стратегий. Данная работа содержит практические рекомендации, направленные на дальнейшее развитие индустрии туризма, что имеет важное значение при принятии стратегических решений, касающихся отрасли.

Ключевые слова. экспорт туристических услуг, турпакет" Умра плюс", мировой туризм, концепция" Табаррук паломничество"

OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM INDUSTRY IN OUR COUNTRY IN THE PROCESS OF CURRENT GLOBALIZATION.

Annotation. This work analyzes the possibilities and prospects for the development of the tourism industry in the Republic of Uzbekistan in the conditions of current globalization. The globalization process increases economic, cultural and information relations between countries, creating new opportunities in the field of Tourism. The work considers the ways to increase the potential of tourism through the historical and cultural heritage, natural resources and the development of modern infrastructure that exist in Uzbekistan. Proposals have also been made based on foreign experiences such as attracting investments in the tourism sector, introducing digital technologies and improving marketing strategies. This work includes practical recommendations aimed at the further

development of the tourism industry and is important in making strategic decisions regarding the industry.

Keywords. tourism services export, "Umra plus "turpaket, World Tourism," Tabarruk pilgrimage" concept

Kirish. Jahonda kechayotgan globallashuv jarayoni, iqtisodiy raqobatga qaramay, turizm industriyasi iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Bunda barcha davlat o‘zi uchun qulay sayyohlik yo‘nalishini, ya’ni bozorda mavqeini egalash, xizmatlar ko‘rsatishning har tomonlama qulay yo‘nalishlarini tanlashga harakat qilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri turizm rivojlangan davlatlar uning serdaromad ekanini anglab yetayotganida. Ya’ni sayyohlik orqali topilgan daromadning 30 foizi odamlarning qo‘liga ish haqi bo‘lib bormoqda. Tarmoqda ochilgan bitta o‘rni boshqa sohalarda qo‘srimcha ikki kishining bandligini ta’minlaydi.

Asosiy qism. O‘zbekistonda ham sayyohlik sohasida juda katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bu xususda shu yil 7 fevral kuni Prezidentimiz raisligida hududlarda xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektorda batafsil so‘z yuritildi. Ta’kidlashishicha, sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan yangi me’yoriy-hududiy hududlar ishlab chiqilmoqda. Halqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, yangi sayyohlik mahsulotlari, yangi yo‘nalishlari rivojlantirishga oid sa’y-harakatlar ancha faollashadi. Natijada o‘tgan yili turizm xizmatlari eksporti 3,5 milliard dollarni tashkil etdi. Lekin bu imkoniyatlarimizga mos emasligi alohida qayd etildi. Masalan, Malayziya va Indoneziyada naqshbandiya tariqatining 7 millionga yaqin izdoshi bor. Ular umraga borishdan oldin ziyoratgohlarimizga kelishni istaydi. Bu sayyoohlarni Kuala-Lumpur yoki Jakartadan Samarcand va Buxoroga 2 kunga olib kelib, o‘zimizning samolyotda umraga yuborish uchun barcha sharoit mavjud. Shu bois, mutasaddilarga Malayziya va Indoneziya ziyoratchilar uchun "Umra plyus" turpaketini joriy etish topshirildi.

Shahrisabzda Oqsaroy, Xivada Ichon qal’a, Buxoroda Labi hovuz, Toshkentda "Yangi O‘zbekiston" maydonlari bo‘lsa-da, ularda kontsert,

ko‘rgazma, forumlar o‘tkazish bo‘yicha aniq rejalar qilinmagan. O‘zimizdagi 6 ta turistik markazda xalqaro darajadagi san’atkorlarning kontserti tashkil qilinsa, mehmonxonaga, restoran, kafe, savdo va xizmat ko‘rsatish ob’ektlari sayyoxatlar bilan yanada to‘ladi.

Turizm qo‘mitasiga sayyoohlarchun mehmonxona, dam olish maskanlarini band qilish, avia vat emir yo‘l, muzey, teatrga chipta sotib olish, gid va tarjimonlar yollash kabi xizmatlarni masofadan turib olish imkonini beradigan yagona platformani ishga tushirish vazifasi topshirildai.

Sayyoohlarning fikr-mulohazalarini inobatga olib, turizm va servis joylarini kechqurun ham ishlaydigan qilish kerakligi ta’kidlandi. So‘nggi uch yilda 27 turdagи davlat xizmati xususiy sektorga beriladi.

Lekin vazirliklarda bu yo‘nalishda hali qilinadigan ishlar juda ko‘pligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimizning rahbarining 2036 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turim sohasini jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi farmoni bu borada tarixiy ahamiyatga ega hujatlardan biri bo‘lgan edi. Ushbu farbon asosida iqtisodiyotda birinchi marotaba turizmga strategic sektor maqomi berilgandi. Natijada O‘zbekistonda xorijiy hamda mahalliy sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi yondosh soha va tarmoqlarning rivojlanishini ta’minalashda yangi bosqich boshlandi.

Tarmoqni etakchi kuchga aylantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o‘zlashtirish va diversifikatsiyalash, bandlikni ta’minalash, aholining turmush darajasi hamda sifatini oshirishga e’tibor qaratildi. Pirovardida yurtimizda 2017-2024 yillarda bu borada juda ko‘p yangiliklar kuzatildi. Qator me’yori-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 10 ta bob, 45 ta moddadan iborat. “Turizm to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Xorijiy davlatlardan keluvchilar uchun viza rejimi soddalashtirildi. Ayni paytda 93 ta davlat fuqarosi uchun vizasiz kirish, 56 ta davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 ta davlat uchun besh kunlik transit vizasiz kirish tartibi belgilangan. 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga

O‘zbekistonga keluvchi xitoylik, AQSH lik va Vietnamlik fuqarolar uchun vizasiz kirish rejimi joriy qilindi. Shuningdek, “Vatandosh”, “Student viza”, “Akademik viza”, “Medikal viza” va “Pilgrim viza” kabi yangi kirish vizasi turlari belgilandi.

Xalqaro aeroportlarda “yashil” va “qizil” yo‘lak tizimi yo‘lga qo‘ldi. Ilgari keluvchilar aeroportdan o‘rtacha hisobda 2-3 soatda chiqib ketgan bo‘lsa, hozir 15-20 daqiqada amalga oshiriladi. Xorijiy sayyohatlarni E-mehmon tizimi orqali elektron ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi joriy etildi, erkin harakatlanish uchun sharoit yaratildi.

Yurtimizga keluvchi sayyoohlar soni 2017 yilda 2,7 million, 2024 yilda 10 milliondan ziyodni tashkil etgani, ularning o‘rtacha qolish muddati 7-8 kunni tashkil etib, o‘tgan davr (2-3 kun)ga nisbatan 3 baravar ortgani shunday sa’y-harakatlar samarasidir.

2017 yilda har bir chet ellik turist mamlakatimiz hududida sayhat xarajatidan tashqari o‘rtacha 197 dollar sarflangan bo‘lsa 2024 yilda bu ko‘rsatkich 430 dollarga yetgan. Ayni paytda yurtimizda faoliyat yuritayotgan mehmonxona brendlari orasida “Hilton”, “Radisson”, “Marriott”, “Intercontinental”, “Holiday Inn”, “Crowne Plaza”, “Wyndham”, “Ramada Encore by Wyndham”, “Mercure”, “Lotte citi hotel” kabi xalqaro doirada mashhur brendlар mavjud.

Bir qator xorijiy davlatlar aholisi uchun mamlakat bo‘ylab sayyohatlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan 40 dan ortiq transchegaraviy turistik mashrut ishlab chiqildi hamda O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari orqali ushbu mamlakatlarga taqdim etildi.

Turkiy davlatlar tashkilotining VIII sammitida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Tabarruk ziyyarat” kontsepsiyasini amalga oshirish orqali ziyyarat turizmini rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlar bajarilmoqda. Tabarruk ziyyarat yo‘nalishida “Mediya info tur” to‘g‘risidagi targ‘ibot materiallari qator xorijiy hamda mahalliy ommaviy axborot vositalari yoritildi.

Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy merosini bir-biriga o‘zaro bog‘liq holda targ‘ib qilish bo‘yicha tashabbusga asosan, YUNESKOning “Xiva deklaratsiyasi” qabul qilindi. Islom hamkorlik tashkilotining 2023 yildagi XI

sesiyasida Xiva 2024 yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e’lon qilindi va 31 may-2 iyun kunlari Xiva shahrida Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)ga a’zo davlatlari turizm vazirlari XII yig‘ilishi o‘tkazildi.

Turkiy davlatlar tashkilotining turizm vazirlari yig‘ilishida Qo‘qon shahri “Ilk turizm poytaxti” degan sharaflı nom bilan ulug‘landi. Shahrisabz shahri 2024 yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan turizm poytaxti, deya e’tirof etildi. Bu Shahrisabz shahrini xorijiy davlatlarda targ‘ib qilish va sayyoohlarni jalg qilishga imkon yaratdi.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi turizm sohasi eng tez rivojlanayotgan 20 mamlakat ichida 4-o‘rin e’tirof etldi. Shuningdek, ushbu xalqaro tashkilot O‘zbekistonni turizm xizmatlaridan tushgan tushumlar (eksport) bo‘yicha dunyo bo‘ylab “ikkinchi eng yaxshi yo‘nalish” sifatida ko‘rsatdi.

2023 yil 16-20 oktyabr kunlari Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining 25-sessiyasi Samarqand shahrida yuqori darajada o‘tkazildi. Uning ijroiya kengashi yig‘ilishi hamda yalpi majlisiga O‘zbekistonni “Ipak yo‘lida turizm” markaziga aylantirish maqsadida Samarqand shahrida UNWTO Tematik ofisini (diplomatik mavqega ega) ochish bo‘yicha Bosh assebleya rezolyutsiyalari hamda Samarqand shahriga Jahon madaniy turizm poytaxti maqomini beruvchi dekleratsiya qabul qilindi.

Xulosa. O‘zbekiston jahon turizm bozorida eng jozibador mamlakatga aylanmoqda. Bu bir jihatdan yurtimizda turizm taraqqiyotiga katta e’tibor qaratilayotgani samarasi bo‘lsa, ikkinchidan, azaldan dunyo tamadduni xazinasi bo‘lgan tarixiy obidalarga boyligi, xalqimizning bag‘rikeng va mehmondo‘stligi tufaylidir. Albatta, bizda turizm sohasida imkoniyatlardan to‘liq foydalanilsa, dunyoning jonajon diyorimizga intilishi oshishiga, barpo etilayotgan yangi O‘zbekistonning istiqboli nurafshon bo‘lishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
2. Қаюмов А.А., Якубов Ў.Ш., ва бошқалар Аҳоли географияси ва демография асослари. Тошкент, 2011.- 154 б.
3. Якубов Ў.Ш., Утепова Г.Б. Аҳоли географияси ва демография асослари. Тошкент, 2011.- 72 б.
4. Якубов Ў.Ш., Ваҳобов X. Рекреацион география асослари. Тошкент, 2012. – 142 б.
5. Солиев А.С., Усмонов М.Р. Туризм географияси. Самарқанд, 2005 – 130 б.